

To'y va bozor odoblari



18:40 / 03.02.2019 6698

Ey, farzand!

To'y va shunga o'xshash ko'ngilxushlik joylariga borilganda oshkor gunoh qilayotganlar guruhiga qo'shilib, ular bilan birga gunoh orttirmaslik, borar-bormas oldingi safda ko'rinishga harakat qilmaslik ma'qul.

Jamoat holida bo'lgan yig'inlarda xizmatdan qochmaslik, atrofdagi yeb-ichiladigan taomlarga qo'l urmaslik, borganda va qaytayotganda salom berish odobdandir.

Ey, farzand!

Bir jamoatda suv yoki choy tarqatish xizmati tushadigan bo'lsa, mavqeyi va yoshiga qarab navbati bilan bu ishni davom ettirish kerak. Bu ish o'ngdan boshlanib, so'nggiga yetkazilgach suv idishlari joyiga qo'yiladi.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat etadilar:

«Bir kishi ehtiyojli bir kishiga suv ikrom etsa, Alloh taolo o'sha kishiga barcha xalqni tiriltirganchalik savob beradi».

Ya'ni chanqagan odamga suv berishning savobi shunchalar ulug' va cheksiz.

Yana bir hadisi shariflarida Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday marhamat etadilar:

«Ey, sevimli ashobim! Qiyomatgacha kelguvchi ummatlarim! Oyoqda (tik) turgan holda suv ichmang! Bunday qilishingiz o'zingiz (taningiz)ga bir necha kasallikni chaqirishingizdir. Faqat tahorat olib bo'lgach, qolgan suvdan uch yutum va zamzam suvini oyoqda turib ichmoq zarar bermaydi. Bu zamzam va tahorat suviga hurmatan ibodatdir».

Bozorga o'xshash odam gavjum joylarga kirayotganda, duo qilib Allohga sig'inmoq foydalidir. Bu haqda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday deydilar:

«Kim bozorga va shunga o'xshaga odam gavjum joylarga kirayotganda shu duoni o'qisa, o'sha kishining ming gunohi afv etilib, mingta savob beriladi. Duo budir:

«La ilaha illallohu vahdahu la shariyka lahu. Lahul mulku va la hul hamdu. Yuhyi va yumiytu vahuva hayyun la yamutu. Biyadihil xoyru va huva ala kulli shayin qodiy». Bozor va shunga o'xshash odamlar ko'p joylarda qo'pol harakatlari qilib, yelka bilan urib, turtib birovlarini ranjitmaslik, yo'llarga, maydonlarga, duch kelgan yerga tupurmaslik, burun qoqmaslik kerak. Jamoat ichida yolg'iz ovqatlanmaslik, hech kim bilan urishib-tortishmaslik, g'avg'o ko'tarmaslik lozim. Yolg'on aytmaslik, hech kimni aldamaslik va aldanmaslikka harakat qilmoq darkor.

Bozordan olingan yeguliklar ko'zdan yashirin, berk, o'rog'liq holda keltirilgani maqsadga muvofiq, ularga faqirlar va bolalarning ko'zlari tushmagani ma'qul, bordi-yu ko'zlari tushsa, ularga berib, tottirgan yaxshi. Uyga ochiq chehra bilan qaytib, uydagilarni sevintirgan a'lodir. Oila a'zolarini va boshqalarni shodlantirganni Alloh oxiratda sevinchli martaba va maqomlarga yetkazadi. Shunday go'zal maqomlarki, mahshar xalqi hayratdan lol qoladi.